

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA  
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

**ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI**

**BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

**X.X.KOMOLOV** \_\_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

**S.Maxmudov** \_\_\_\_\_

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2015 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM  
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI**

***TO'XTANAZAROV AVAZBEKNING***

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

***MAVZU: TIF “MILLIY BANK” PAXTAOBOD FILIALIDA  
DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILI.***

**BMI rahbari i.f.n.:**

**Sk.MAXMUDOV**

**Bajaruvchi:**

**A.TO'XTANAZAROV**

**ANDIJON – 2015**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA  
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI  
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI

IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining  
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov \_\_\_\_\_

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ yil.

**Kunduzgi bo'lim buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishining  
4-bosqich talabasi To'xtanazarov Avazbekning  
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

# TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** *institut rektorining 2014 yil 10 sentyabrdagi №275-ST sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.*
- 2. BMIning mavzusi:** *TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida daromad va xarajatlar tahlili.*
- 3. Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti:** *20 aprel 2015 yil.*
- 4. Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** *BMI kirish, asosiy qism, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.*
- 5. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** *«Buxgalteriya xisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining BXMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda TIF “Milliybank” Paxtaobod filialining 2013-2014 yillardagi yig'ma va yilik hisobotlari hamda mavzuga oid bo'lgan boshqa ma'lumotlari.*
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** *Bitiruv Malakaviy ishda mavzu mohiyatini yoritishga yordam beradigan 5ta jadval, 5ta uzatma tuzilib, ulardan 3 tasi bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.*

<i>Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari</i>	<i>Asosiy qismlarni bajarish vaqti</i>	<i>Raxbar unvoni, F. I.SH.</i>	<i>Imzo</i>
<i>KIRISH</i>	<i>03.11.-08.11.14</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<b><i>1-bob. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishni nazariy asoslari.</i></b>	<i>10.11.-8.12.14</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>1.1. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslari.</i>	<i>10.11.-24.11.14</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>1.2. Banklarda daromad va xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.</i>	<i>24.11.-8.12.14</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<b><i>2-bob. Tif "milliy bank" paxtaobod filialida daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.</i></b>	<i>10.12.14-10.02.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>2.1. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialining umumiy tavsifi.</i>	<i>10.12.-24.12.14</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>2.2. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromadlar hamda xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.</i>	<i>05.01.-20.01.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>2.3. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromad va xarajatlarning dinamikasi tahlili.</i>	<i>22.01.-10.02.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<b><i>3-bob. Banklarda daromadlar va xarajatlar tahlilini tashkil etishni takomillashtirish masalalari.</i></b>	<i>15.02.-25.03.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>3.1. Banklarda daromadlar va xarajatlarning omilli tahlili.</i>	<i>15.02.-03.03.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>3.2. Banklarning daromadlarini oshirishda bank kreditlari va moliyaviy resurslar tahlili.</i>	<i>05.03.-25.03.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>Xulosa va takliflar.</i>	<i>26.03-05.04.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	
<i>Foydalanilgan adabiyotlar.</i>	<i>06.04-10.04.15</i>	<i>I.f.n. Sk.Maxmudov</i>	

***Topshiriq berilgan vaqti: 10 sentyabr 2014 yil.***

***BMI rahbari, i.f.n.:***

***Sk. Maxmudov***

***Bitiruvchi:***

***A. To'xtanazarov***

# M u n d a r i j a

bet

1.	<i>KIRISH</i>	
2.	<i>1-bob. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishni nazariy asoslari.</i>	
3.	<i>1.1. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslari.</i>	
4.	<i>1.2. Banklarda daromad va xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.</i>	
5.	<i>2-bob. tif "milliy bank" paxtaobod filialida daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari.</i>	
6	<i>2.1. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialining umumiy tavsifi.</i>	
7	<i>2.2. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromadlar hamda xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.</i>	
8	<i>2.3. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromad va xarajatlarlarning dinamikasi tahlili.</i>	
9	<i>3-bob. Banklarda daromadalar va xarajatlar tahlilini tashkil etishni takomillashtirish masalalari.</i>	
10	<i>3.1. Banklarda daromadlar va xarajatlarning omilli tahlili.</i>	
11	<i>3.2. Banklarning daromadlarini oshirishda bank kreditlari va moliyaviy resurslar tahlili.</i>	
12	<i>Xulosa va takliflar</i>	
13	<i>Foydalanilgan adabiyotlar.</i>	

**Topshiriq tugatish vaqti:** 20 aprel 2015 yil.

**BMI rahbari, i.f.n.:**

**Sk. Maxmudov**

**Bitiruvchi:**

**A. To'xtanazarov**

# **MAVZU: "TIF MILLIY BANK" PAXTAOBOD FILIALIDA DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILI.**

## **KIRISH**

### **1-BOB. BANKLARDA DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILINI TASHKIL ETISHNI NAZARIY ASOSLARI.**

- 1.1. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslari.
- 1.2. Banklarda daromad va xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

### **2-BOB. TIF "MILLIY BANK" PAXTAOBOD FILIALIDA DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.**

- 2.1. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromadlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.
- 2.2. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.
- 2.3. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromad va xarajatlarning dinamikasi tahlili.

### **3-BOB. BANKLARDA DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.**

- 3.1. Banklarning daromadlarini oshirishda moliyaviy resurslarni o'rni va roli.
- 3.2. Bank kreditlari bank daromadlarini oshirishning bosh omili sifatida.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar bugungi kunda o'z natijasini ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat o'z mevasini berayotganligini muxtaram prezidentimizning quyidagi so'zlarida o'z aksini topgan.

“Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,1 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi 6,9 foiz, kapital qurilish 10,9 foiz, chakana savdo aylanmasi hajmi 14,3 foizga oshdi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tayyor tovarlar tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 2014 yilda 9,4 foiz, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 8,7 foiz, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 10 foizga o'sdi. Inflyatsiya darajasi yil yakunlari bo'yicha 6,1 foizni tashkil etdi. Bu prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan sezilarli darajada pastdir.”<sup>1</sup>

Ijtimoiy munosabatlar tizimini o'zgarishi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashishi, tashqi iqtisodiyot aloqalarida jaxon iqtisodiy va integratsion jarayonlarga ochiq ekanligi, shunga mos xolda, xo'jalik faoliyati tahlilini o'zgartirishni taqozo etdi.

Bozor munosabatlariga o'tish va davlat mulkini xususiylashtirish xo'jalik yuritishning mazmuni, tuzilishi va psixologiyasida jiddiy o'zgarishlarga olib keladi. Bu o'z navbatida, xo'jalik faoliyati tahlilida tub o'zgarishlarni talab qiladi.

Bu bir qator ob'ektiv sabablar bilan bog'liq bo'lib, ularning asosiylari jaxon iqtisodiy xamjamiyatlarini globallashtirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi jadal rivojlanishni boshlanishidir.

Bularga dastavval xorijiy investitsiyalar, xorijiy davlatlar bilan olib boriladigan moliyaviy va xo'jalik aloqalar, savdo va tijorat muomalalarini baynalminallashtirish, xususiylashtirish jarayonlarini kengaytirish va

---

<sup>1</sup> Prezident I.A.Karimovning 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2015 yil 17 yanvar 11-son.

teranlashtirish va qimmatli qog'ozlar bozori, soliqqa tortish siyosatini ta'minlovchi tizimlarni rivojlantirish, xo'jalik aloqalarini amalga oshirishda madaniylashgan xuquqiy asoslarga tayanish, atrof muxitni ekologiyasiga e'tiborni ortishini kiritish mumkin.

Xozirgi zamon iqtisodiyotining bu yo'nalishlari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati tahlilida o'z aksini topishi kerak. Buxgalteriya xisobi bu chaqiriqni qabul qilishga majbur, xozirgi zamon iqtisodiy sharoitlariga moslashishga tayyor bo'lib jamiyat tomonidan buxgalteriya xisobi va xisobotiga qo'yiladigan talablarni qondirishi kerak.

Buxgalteriya xisobi xalqaro biznes tili sifatida davlat qonunlarini bajarilishini kafolatlashi, tadbirkorlikni rivojlanishiga, mulkni saqlash va ko'payishiga xizmat qilishi, manfaatdor (investorlar, aktsiyadorlar, banklar, fondlar, mol yuboruvchilar, mol oluvchilar, rasmiy organlar va sh. k.) lar tomonidan muxim iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda (kapitalni investitsiya qilish, bozorga chiqish, xodimlarni yollash, soliq siyosati, moliyalash manbalarini qidirib topish, xisoblashlar va sh. k.) zarur bo'ladigan to'liq va ishonarli axborotlarni o'z vaqtida yetkazib berish kerak. Bu borada iqtisodiy tahlilning ham muhim va o'ziga xos vazifasi hamda o'rni bor.

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi** banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish yo'li bilan mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash, aniqlangan ichki imkoniyatlardan foydalanish yo'li bilan yuqori darajada daromadlarni olish hamda xarajatlarni imkon qadar kamaytirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslarini to'liq o'rganish;
- banklarda daromad va xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishib chiqish;
- daromadlar va xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlil qilish;
- banklarda daromadlar va xarajatlarning dinamikasini tahlil qilish;

- banklarning daromadlarini oshirish imkoniyalarini aniqlashda bank kreditlari va moliyaviy resurslarni tahlil qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti** bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilish yo'li bilan daromadlarni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining amaliyot ob'ekti** bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida faoliyat ko'rsatayotgan TIF "Milliy bank" Paxtaobod filiali tanlab olindi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusini to'liq yoritish maqsadida mazkur bankning buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari va buxgalteriya hisobotlarida keltirilgan ma'lumotlardan keng foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining uslub va uslubiyati.** Bitiruv malakaviy ishining mavzusini yoritishda O'zbekiston Respublikasining Qonunlaridan, Vazirlar Mahkamasining Qarorlaridan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida tasdiqlangan Nizomlar va Yo'riqnomalardan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqarmasining tomonidan ishlab chiqilgan Nizom hamda Yo'riqnomalardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning iqtisodiyotga oid asarlaridan, iqtisodchi olimlarning mavzu doirasida olib borgan ilmiy ishlaridan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, asosiy qismni ifodalovchi uchta bob, xulosa va takliflar, hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, predmeti, amaliyot ob'ekti, uslub va uslubiyoti va hajmi keltirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida "Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishni nazariy asoslari" bo'yicha banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslari, banklarda daromad va



xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobida TIF Milliy bank" Paxtaobod filialida daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari" bo'yicha daromadlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili, xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili, banklarda daromadlar va xarajatlar dinamikasi tahlili qilindi.

Ishning uchinchi bobida "Banklarda daromadlar ko'paytirish imkoniyatlari" yuzasidan banklarning daromadlarini oshirishda moliyaviy resurslarni o'rni va roli, bank kreditlari bank daromadlarini oshirishning bosh omili sifatida o'rganib chiqildi.

Xulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ishini yozish natijasida erishilgan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## **1-BOB. BANKLARDA DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILINI TASHKIL ETISHNI NAZARIY ASOSLARI.**

### **1.1. Banklarda daromad va xarajatlar tahlilini tashkil etishning huquqiy asoslari.**

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ayrimlari mahsulot ishlab chiqarish yo'li bilan moddiy ne'matlar yaratadilar. SHuningdek, yaratilgan moddiy ne'matlarni iste'molchilarga yetkazib berish uchun savdo faoliyatini amalga oshiradilar. Boshqalari esa yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslarga o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyatlarini amalga oshirish natijasida foydaga oladilar va olgan foydasi hisobidan O'zbekiston qonunchiligida belgilangan soliqlarni to'laydilar. Yig'ilgan soliqlar hisobidan davlat o'z vazifasini bajaradi, jumladan: maorifni, tibbiyotni, mudofani va boshqalarni yaxshilash va rivojlantirish uchun sarflanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'z faoliyatini tashkil qilish uchun ta'minot va sotish jarayonlarini amalga oshiradilar. Bu jarayonlarni amalga oshirish uchun boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan o'zaro iqtisodiy aloqaga kirishadilar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy aloqalarda o'zaro mahsulotlar ayriboshlanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida mahsulotlarni olti-sotti qilish natijasida ularning oldida to'lovlar bo'yicha majburiyatlar yuzaga keladi. To'lovlarni amalga oshirishda pul mablag'lar muomala vositasi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida to'lovlar aksariyat hollarda naqd pulsiz bo'lib, bankdagi hisob raqamlari orqali amalga oshiriladi va majburiyatlar qoplanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'zaro hisob-kitoblarni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishda banklar muhim o'rin egallaydilar. Banklar o'z mijozlarining to'lov topshiriqnomasiga asosan, naqd pulsiz to'lovlarni o'tkazib berishda vositachilik vazifasini bajaradilar. Banklar o'z mijozlariga ularning talabi bo'yicha ko'rsatayotgan xizmati yoki boshqacha qilib aytganda amaliy yordami

bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi yoki ichki hisoblashlari amalga oshirishlarida yaqindan yordam beradilar.

Banklar – tijorat tashkiloti hisoblanib, quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradilar:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lar hisobidan kreditlar berish yoki investitsiya qilish uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirishda vositachlik qilish.

Banklar – pul muomalasini boshqaruvchi, yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvarag'ini (schyotini) yuritib, ularning to'lovlari yuzasidan ularning hisob-kitoblarini bajaruvchi tashkilot bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari banklar yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini saqlash, kredit berish bilan bog'liq vazifalarni ham bajaradilar.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab barcha korxonalar va tashkilotlar qatorida banklarning erkin faoliyat yuritishlari uchun keng sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berildi. Natijada, Respublikada banklar o'z faoliyatini erkin amalga oshirishlari uchun Qonunlar qabul qilindi va Nizomlar ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasida banklar va ularning faoliyatini tashkil qilish yuzasidan qabul qilingan qonunlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirib o'tishni lozim topdik:

1. O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 21 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 25 aprelda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 16 dekabrda "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2004 yil 29 aprelda "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi Qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 11 dekabrda "Elektron raqamli imzo to'g'risida"<sup>2</sup>gi Qonuni.

7. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 30 avgustda "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 4 – "Bank operatsiyalari" nomli moddasida banklar o'z faoliyatlarida quyidagi bank operatsiyalarini amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan:

- jismoniy va yuridik shaxslarning, shu jumladan vakil banklarning hisobvaraqlarini ochish va yuritish, hisobvaraqlar bo'yicha hisob-kitob qilish;
- omonatlarni jalb etish;
- kreditlarning qaytarilishi, foizlilik va muddatliligi sharti bilan o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'lar hisobidan o'z nomidan kreditlar berish.

SHuningdek, ushbu moddada banklar boshqa turdagi operatsiyalarni amalga oshirishlari ko'rsatib o'tilgan, jumladan:

- mablag' egasi yoki mablag'ni tasarruf etuvchi bilan tuzilgan shartnomaga binoan pul mablag'larini boshqarish;
- chet el valyutasini naqd pul va naqd bo'lmagan pul shakllarida yuridik hamda jismoniy shaxslardan sotib olish va ularga sotish;
- pul mablag'lari, veksellar, to'lov va hisob-kitob hujjatlarini inkasso qilish;
- uchinchi shaxslar nomidan majburiyatlarning bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish;
- uchinchi shaxslardan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish huquqini olish;
- qimmatli qog'ozlar chiqarish, xarid qilish, sotish, hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni boshqarish, qimmatli qog'ozlar bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;
- bank faoliyati yuzasidan maslahat va axborot xizmati ko'rsatish;

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2004 yil, 12-son, 12-modda

- jismoniy va yuridik shaxslarga hujjatlar va boshqa boyliklarni saqlash uchun maxsus binolar yoki ular ichidagi po'lat sandiqlarni ijaraga berish;
- moliyaviy lizing;
- xalqaro bank amaliyotiga muvofiq, litsenziyada maxsus ko'rsatilgan boshqa operatsiyalar.

Banklar mahsulot ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va byudjet tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarga ham o'z xizmatini taqdim qiladi. Bunday xizmatlar qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

1. To'lov vositasini amalga oshiradi;
2. Xizmatlar ko'rsatish.

Banklar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni, ular tomonidan amalga oshiriladigan quyidagi uchta operatsiya bo'yicha keltirish mumkin:

1. Depozitlar bo'yicha operatsiyalar.
2. Kredit operatsiyalari.
3. Hisob-kitob operatsiyalari.

1. Depozit operatsiyalari bank mijozlarining omonatlarini joylashtirish bilan bog'liq. Ma'lumki odamlar o'z mablag'larini har xil talon-tarojliklardan asrash maqsadida banklarda saqlashgan. Keyinchalik esa pul mablag'larining qadrsizlanishini oldini olish uchun banklarga qo'yishgan bo'lsa, hozirgi paytda esa daromad olish uchun bankka qo'yishmoqda. CHunki, bankka qo'yilgan pul mablag'lari uchun ssuda foizlarini oladilar.

2. Kredit operatsiyalari bankning asosiy muomalasi hisoblanadi. SHuning uchun ham bankni kredit muassasasi deb ataladi. CHunki, banklar o'z daromadlarining asosiy qismini kredit berish evaziga topadilar.

3. Hisob-kitob operatsiyalari nakd pul bilan va nakd pulsiz shakllarda amalga oshiriladi. Mijozlarning talabi yoki topshirig'iga asosan banklar ularga har xil schyotlar ochishi mumkin. Bu schyotlarga pul mablag'larining kelib tushishi yoki bu schyotlardan to'lov muomalalarini amalga oshirish mumkin. YURidik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob munosabatlarida banklar vositachilik vazifasini bajaradi.

Banklar tomonidan amalga oshiraladigan faoliyatning tarkibiy qismi hisoblangan xizmatlar ko'rsatishni quyidagi 1–javadlda keltirilganidek turkumlash mumkin.

### 1–jadval

#### Banklar tomonidan amalga oshiraladigan faoliyatning tarkibiy qismi hisoblangan xizmatlarning turkumlanishi

<b>№</b>	<b>Bank xizmatlari</b>	<b>Xizmatlarning turkumlanishi</b>
1	Bank faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	1. O'z faoliyatiga mos xizmatlar 2. O'z faoliyatiga mos bo'lmagan xizmatlar
2	Xizmatlarni oluvchi sub'ektlar	1. Huquqiy shaxslar 2. Jismoniy shaxslar
3	Bank resurslarini shakllanishi va joylashishi	1. Aktiv operatsiyalar 2. Passiv operatsiyalar
4	Ko'rsatilgan xizmat uchun to'lanishi	1. Pulli xizmat 2. Bepul xizmat
5	Moddiy ne'matlarning harakatiga bog'likligi	1. Moddiy ne'matlarning xarakatiga bog'lik bo'lgan xizmatlar 2. Sof xizmatlar

YUqorida keltirilgan uchta xizmat turlarini traditsion bank operatsiyalari deb ham yuritiladi. Chunki, shunday uchta xizmat turini bir vaqtda bajara olmagan bankni, bank deb atash mumkin emas. Ma'lumki, shu uchta xizmat turidan birini boshqa kredit muassasalari ham bajara oladi. Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, pochta xizmati pul mablag'larini o'tkazish yoki yetkazib berishi mumkin. Har qanday tashkilot ham bo'sh pul mablag'lari hisobidan kredit berishi mumkin, shuningdek, kredit uyushmalari omonatlarni olish evaziga foiz to'lashi mumkin.

O'z faoliyatiga mos bo'lmagan yoki notraditsion xizmat turlariga ko'shimcha operatsiyalar kiradi. Ularning tarkibiga quyidagi muomalalarni

kiritishimiz mumkin: valyuta, qimmatli qog'ozlar, oltin, qimmatbaxo metallar va qo'yilmalar bo'yicha oshiriladigan muomalalar.

Banklar o'z faoliyati davomida mijozlar va boshqalardan bo'sh pul mablag'larini yig'adi va ularni buyurtmachilar o'rtasida qaytarish sharti bilan taqsimlaydi. Banklar tomonidan ko'rsatadigan xizmatlar aktiv va passiv shakllarda namoyon bo'ladi.

Aktiv operatsiyalarning keng yoyilgan turlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- ssuda;
- investitsiya;
- depozit;
- boshqa chet el valyutalari.

Passiv operatsiyalarning quyidagi to'rtta shakli mavjud:

- tijorat banki qimmatli qog'ozlarning birinchi emissiyasi;
- foydadan fondlarni tuzish va ularni ko'paytirish uchun ajratmalar qilish;
- boshqa yuridik shaxslardan kreditlar olish;
- depozit operatsiyalari.

Boshqacha qilib aytganda, banklar aktiv operatsiyalarni amalga oshirish orqali o'zining va chetdan jalb qilingan resurslarini turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yoki aholining ehtiyojlari uchun joylashtiradilar hamda passiv muomalalar yordamida esa banklar o'z resurslarini shakllantiradilar.

Banklarning xizmati uchun to'lovlarga qarab pulli va bepul xizmat turlariga bo'linadi. Moddiy ne'matlarning harakati bilan bog'liqligiga qarab esa bank xizmatlari quyidagicha turkumlanadi:

- uning harakati bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar;
- sof xizmatlar.

Banklar o'zlarining pul operatsiyalari bilan moddiy ne'matlarning yaratilishiga sabab bo'ladi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan yangi qo'shimcha qiymatlar yaratiladi.

Sof xizmatlar banklar tomonidan bevosita moddiy ishlab chiqarish jarayoni bilan band bo'lgan xo'jalik sub'ektlariga yoki jismoniy shaxslarning talablarini qondirish uchun ko'rsatiladi.

Aytish lozimki, banklar o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning faoliyatini amalga oshirishda yaqindan yordam berib, yangi imkoniyatlar va yangi texnika hamda texnologiyalarni yaratilishida o'z hissasini qo'shadilar.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishi va uning ravnaq topishida banklarning tutgan o'rni katta bo'lib, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar natijasida nafaqat o'zlarini, balki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga yaqindan yordam beradi, hamda takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.



## **1.2. Banklarda daromad va xarajatlarning shaklanishi va ular tahlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.**

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar turli mulk shakliga asoslangan bo'lib, ularning aksariyati aktsiyadorlik banklar ko'rinishida tashkil etilgan. Banklarni boshqarishda rais bank faoliyatida unga bevosita rahbarlik qiladi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan banklarning mulkchilik asoslariga ko'ra quyidagi to'rtta ko'rinishi mavjud:

1. Davlat banklar;
2. Aktsiyadorlik banklar;
3. Xususiy banklar;
4. Qo'shma banklar.

Banklar o'z faoliyatida o'z mijozlariga xizmat ko'rsatadi va turli operatsiyalarni bajaradilar. Banklarning bunday faoliyatlarini amalga oshirish jarayonida daromad oladilar va xarajatlarni amalga oshiradilar. Banklar o'z faoliyatida xarajatlarni amalga oshirish hisobiga daromad oladilar yoki boshqacha qilib aytganda daromad olish uchun xarajat qiladilar. Banklarning oladigan daromadlari ularning qilgan xarajatlarini qoplaydigan asosiy manba bo'lib hisoblanadi.

Tijorat banklarining daromadlari yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan uzoq va qisqa muddatli kreditlar bo'yicha olingan foizlar, kreditlarning o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun shartnomalarda ko'rsatilgan mijozlardan olinadigan yuqori stavkadagi foizlar hisobiga vujudga keladi. Banklarning bunday daromadlari barcha oladigan daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004 yilning 30 yanvarida 1306-son bilan ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2003 yilning 11 oktyabridagi 25/8-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Banklarda foizlarni hisoblash to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqildi.

Mazkur Nizomga muvofiq daromadlar - bu xususiy kapitalning muassislar ulushlari hisobidan ko'payishdan tashqari, kapitalning ko'payishiga olib kelgan

davrda bankning odatiy faoliyati davomida iqtisodiy nafning yalpi kelib tushishidir.

Daromad bankning odatiy faoliyati davomida yuzaga keladi va har xil atamalar, shu jumladan foizlar, foyda, dividendlar, sotishdan olingan tushum, gonorar, royalti va ijara haqi bilan ataladi.

Foyda - bu bankning odatiy faoliyati jarayonida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo'lgan daromadning ko'rinishidir. Foyda, masalan, asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foydani o'z ichiga oladi. Foyda ta'rifi realizatsiya qilinmagan foyda, masalan savdo uchun mo'ljallangan (bozor) qimmatli qog'ozlarni qayta baholashda yuzaga keladigan foydani ham o'z ichiga oladi.

Banklarning daromadlari asosan ikki manba hisobidan tashkil topadi:

1. Foizli daromadlar;
2. Foizsiz daromadlar.

Foizli daromad - bu pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun olingan daromad. SHuningdek foizli daromad har qanday diskont, mukofot yoki qarz qimmatli qog'ozlari yohud ssudalarning boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summalarini o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi.

Foizli daromadlar manbaiga:

- qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar;
- mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar;
- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar;
- boshqa foizli daromadlarni keltirish mumkin.

Foizsiz daromadlar manbaiga esa:

- horijiy valyutadagi foyda;
- tijorat operatsiyalaridan olingan foyda;
- investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar;

- boshqa foizsiz daromadlarni kiritish mumkin.

Banklar mijozlardan talab qilib olinguncha qadar saqlanadigan depozit hisobvaraqlari, muddatli, jamg'arma hisobvaraqlar, valyuta va boshqa hisobvaraqlarni ochadilar. Bu hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida mijozlarga xizmatlar ko'rsatilib, tegishli ravishda haq oladilar. Bu xizmatlari uchun oladigan daromadlari ko'pincha bank va mijoz o'rtasida hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlarda xizmat ko'rsatish to'g'risidagi o'zaro tuzilgan shartnomada belgilanadi.

Banklar o'z faoliyati davomida kutilmagan daromadlar ham olishi mumkin. Bunday daromadlarga bank kassalaridagi naqd pul mablag'larining ortiqcha chiqqan qismi, qarzdorlardan undirilgan jarimalar va hisoblangan penyalar, asosiy vositalarni tugatishdan yoki sotishdan olingan daromadlar kiradi.

“Banklarda foizlarni hisoblash to'g'risida” Nizomga muvofiq xarajatlar - xususiy kapitalni uning muassislari o'rtasida taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning kamayishiga olib keladigan aktivlarning kamayishi yoki tugashi ko'rinishida yohud majburiyatlarning ko'payishi ko'rinishida hisobot davri ichida iqtisodiy nafning kamayishidir.

Zararlar - bu bankning odatiy faoliyati davomida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo'lgan xarajatlar ko'rinishidir. Zararlar, masalan, yong'in yoki suv toshqini kabi tabiiy ofatlardan ko'rilgan yo'qotishlarni, shuningdek asosiy vositalarning chiqib ketishidan ko'rilgan zararlarni o'z ichiga oladi. Zararlar ta'rifi realizatsiya qilinmagan zararlar, masalan mijozlarning yoki bank ushbu valyutaga o'zlashtirgan depozitlariga nisbatan valyuta ayriboshlash kursining ko'tarilishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni ham o'z ichiga oladi.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan banklarning xarajatlarini uchta yirik guruhga ajratish rasman qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan banklarning “Daromadlar va xarajatlar to'g'risida”gi hisobotida o'z aksini topgan.

Mazkur hisobotga asosan banklarning xarajatlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Foizli xarajatlar;
2. Foizsiz xarajatlar;
3. Operatsion xarajatlar.

Foizli xarajatlar - bu pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan foydalanganlik uchun xarajatlardir. Foizli xarajatlar har qanday diskont yoki qarz qimmatli qog'ozlari yohud qarz mablag'larining boshlang'ich balans qiymati bilan ularning so'ndirish summolari o'rtasidagi boshqa farqlarning amortizatsiya summasini o'z ichiga oladi.

Foizli xarajatlar barcha majburiyatlar bo'yicha mijozlarga va boshqa banklarga to'langan foizlardan tashkil topadi. SHuningdek, bankda kredit resurslarini tashkil qilish uchun talab qilib olungunga qadar saqlanadigan depozitlar, jamg'armali hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga to'lanadigan foizlar ham bankning foiz ko'rinishidagi xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Banklar asosan kredit berish maqsadida Markaziy bankdan, boshqa banklardan byudjetdan tashqari fondlardan, yuridik shaxslar, bugunga kelib byudjetdan kreditlar olishi mumkin. Olingan kreditlar uchun foiz ko'rinishidagi to'lovlar ham bankning foizli xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

Respublikamiz banklarning foizli xarajatlari tarkibiga:

- depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- hisobvaraqlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- to'lanmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa foizli xarajatlarni keltirish mumkin.

Banklarning foizsiz xarajatlariga esa:

- komission xarajatlar;
- horijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar;
- tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar;
- investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;

- boshqa foizsiz xarajatlar kiritilgan.

Respublikamizda banklarning operatsion xarajatlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar;
- ijara va ta'minot xarajatlari;
- xizmat safari va transport xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- reprezentatsiya va hayriya;
- eskirish xarajatlari;
- sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar;
- ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash;
- daromad solig'ini baholash kabi xarajatlar kiradi.

Banklarning xodimlariga berilgan maoshlar, xodimlarga qo'shimcha to'lovlar, xizmat safar xarajatlari, bino yoki boshqa mulklarni ijaraga olish xarajatlari, ijara to'lovlari va materiallarni harid qilish xarajatlari kiradi. Banklar O'zbekiston Respublikasi Nafaqa fondiga, O'zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta'minlash fondiga, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy sug'urta fondiga o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, bank xodimlariga mukofot hamda ko'p yillar davomida ishlaganligi uchun qo'shimcha yoki ustama to'lovni amalga oshiradi. SHuningdek, bank tomonidan Nafaqa fondiga, tibbiy sug'urta va sug'urtaning boshqa turlari uchun ihtiyoriy ravishda o'tkazilgan ajratmalar, qonunlarga muvofiq bank mulkini hamda xodimlarni davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar bankning operatsion xarajatlari hisoblanadi.

Bankning operatsion xarajatlari bank uchun malakali kadrlar tayyorlashda, ularning malakasini oshirish uchun sarflaydigan xarajatlari kiradi. Banklarning oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlarni tayyorlash, o'quv markazlari va boshqa malaka oshirish institutlarida bank xodimlari malakasini oshirish bo'yicha xizmatlari uchun haq to'lanadi. Banklar kam baholi tez eskiruvchi buyumlarni, maxsus adabiyotlar sotib olish, shuningdek, bank faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'ladigan maxsus

nashrlarga obuna bo'yicha qilinadigan xarajatlar mavjud bo'lib, ular ham bankning operatsion xarajatlari hisoblanadi.

Banklarning daromadlari va xarajatlari bankning "Balans hisoboti" va "Daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi hisobot"larida aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobida ma'lum davr mobaynida daromadlari va xarajatlari amalga oshirilgan vaqtdayoq analitik hisobvaraqlarda olib boriladi va ular sintetik schyotlarda yig'iladi. Oy, chorak, yillik hisobotlarda aks ettiriladi. Tijorat banklarining "Daromad va xarajatlar to'g'risidagi hisoboti"da barcha qilingan xarajatlar va olingan barcha daromadlar aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, banklar tomonidan olinadigan daromadlari foiz ko'rinishidagi daromadlar va foizsiz daromatlardan tashkil topadi, shuningdek banklarning xarajatlari ham o'z navbatida fozli, foizsiz xarajatlar bilan birga boshqa operatsion xarajatlardan tashkl topadi.

Banklarning daromadlari va xarajatlari ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalovchi formulalar adabiyotlarda kam uchraganligi sababli Bitiruv malakaviy ishida banklarda daromadlar va xarajatlarni aniqlash formulalarini keltirib o'tishni lozim topdik. SHuningdek, bitiruv malakaviy ishining mavzusi banklarda daromadlar va xarajatlar tahliliga bag'ishlanganligi sababli ishda banklarda daromadlar va xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlash formulasini keltirib o'tish bilan kifoyalidik.

Banklarning jami daromad (JD)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:

$$\mathbf{JD = FD + FBD}$$

Bu yerda: FD – foizli daromadlar;

FBD – foizsiz daromadlar.

Banklarda foizli daromad (FD)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

$$\mathbf{FD = QQ + MJ + QMK + UMK + LF + BFD}$$

Bu yerda: QQ - qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar;

MJ - mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar;

QMK - qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;

UMK - uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;

LF - lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar;

BFOD - boshqa foizli daromadlarni keltirish mumkin.

Banklarda foizsiz daromad (FBD)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\mathbf{FBD = XVF + TOF + IFF + BFBD}$$

XVF - horijiy valyutadagi foyda;

TOF - tijorat operatsiyalaridan olingan foyda;

IFF - investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar;

BFBD - boshqa foizsiz daromadlarni kiritish mumkin.

Banklarda jami xarajat (JX)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\mathbf{JX = FX + FBX + OX}$$

Bu yerda: FX – foizli xarajatlar;

FBX – foizsiz xarajatlar;

OX – operatsion xarajatlar.

Banklarda foizli xarajat (FX)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:

$$\mathbf{FX = DFX + XFX + TAFX + QMKX + UMKX + QQFX + BFX}$$

Bu yerda: DFX - depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;

XFX - hisobvaraqlar bo'yicha foizli xarajatlar;

TAFX - to'lanmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar;

QMFx - qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;

UMFX - uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;

QQFX - qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar;

BFX - boshqa foizli xarajatlarni keltirish mumkin.

Banklarda foizsiz xarajat (FBX)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\mathbf{FBX = KX + XVZ + TOZ + IZ + BFBX}$$

Bu yerda: **KX** - komission xarajatlar;  
**XVZ** - horijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar;  
**TOZ** - tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar;  
**IZ** - investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;  
**BFBX** - boshqa foizsiz xarajatlar kiritilgan.

Banklarda operatsion xarajat (**OX**)larni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\mathbf{OX = IXX + IX + XSX + MX + RXX + EX + SSX + ZZ + DSBX}$$

Bu yerda: **IXX** - bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar;

**IX** - ijara va ta'minot xarajatlari;

**XSX** - xizmat safari va transport xarajatlari;

**MX** - ma'muriy xarajatlar;

**RXX** - reprezentatsiya va hayriya;

**EX** - eskirish xarajatlari;

**SSX** - sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar;

**ZZ** - ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash;

**DSBX** - daromad solig'ini baholash kabi xarajatlar kiradi.

Banklarning aktivlarini va xususiy kapitalini ko'paytirish, ularning faoliyatini yaxshilash, xizmat madaniyatini oshirishda, ular tomonidan olinayotgan oladigan daromadlar va qilinayotgan xarajatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Banklarning daromadlarini oshirish va xarajatlarini kamaytirishga nafaqat yuqori darajadagi foizlar orqali, balki foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday ichki imkoniyatlarni aniqlashda iqtisodiy tahlilning o'rnini kattadir.

Banklarning daromadlar va xarajatlarini tahlil qilish orqali foydalanilmayotgan ichki zahiralarni aniqlanib, bu zahiralarni amaliyotga tadbiiq etish orqali daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga erishish mumkin.



Banklarda daromadlar va xarajatlar tahlil qilish maqsad, daromadlar va xarajatlar tahlil qilish yo'li bilan daromadlarni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirishdan iborat.

Banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilishning mohiyati, bank faoliyatida samaradorlikni oshirish imkoniyatiga erishishdan iboratdir. Tahlil o'tkazish natijasida bank faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari aniqlanadi. Tahlil o'tkazish orqali bank faoliyatidagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va bank resurslarini ko'proq daromad keltiruvchi sohalariga jalb etish yo'li bilan bankning likvidligini va daromadligini oshiriladi.

Bunda asosan bank daromadlarining manbalarini aniqlanadi, haqiqatdagi bank daromadini biznes rejadagisi bilan mos ravishda taqqoslanadi, bank daromadlarini tarkibiy tuzilmasi o'rganilib, daromadlarni oshirishga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Xuddi shuningdek xarajatlarni nima maqsadda sarflanayotganligi o'rganilib, xarajatlarning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilinadi, bunda umumiy va alohida turdagi xarajatlar darajasi tahlil qilinadi.

Banklarda daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish yo'li bilan banklarning foyda ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'linadi. Banklarda foyda ko'rsatkichlari hisobidan dividendlarni oshirish zahiralari va kapitalini ko'paytirish mumkin.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishning zarurati, olingan daromadlar va qilingan xarajatlarni tuzilgan biznes rejaga yoki o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablarini o'rganishdan uchun imkoniyat yaratadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlili haqiqatdagi ko'rsatkichlarni mos ravishda biznes reja yoki o'tgan yildagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu esa haqiqatda olingan daromadlar va qilingan xarajatlarni biznes reja yoki o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablarini o'rganish hamda baholash uchun zamin yaratadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishning ahamiyati katta bo'lib, daromadlarni oshirish va xarajatlarni kamaytirish yo'li bilan foydani oshirishga erishishda namoyon bo'ladi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishning roli banklarning moliyaviy holatini yaxshilanishida namoyon bo'ladi.

Banklarning daromad va xarajatlarining chuqur va har tomonlama o'tkazilgan tahlili moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini beruvchi rezervlarni (zahiralarni) aniqlash bank faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish hamda bankning kelgusidagi faoliyatini yaxshilash imkonini beradi. Lekin buning uchun bankning daromad va xarajatlarini harakterlovchi ko'rsatkichlar tizimini tahlil qilish va mazkur ko'rsatkichlar yuzasidan o'tkaziladigan tahlil usulini aniqlab olish darkor.

Banklarning daromadlilikiga ta'sir etuvchi omillarning strukturaviy o'zgarishlarini o'rganish zaruriyati bo'lib, daromadlilikni moliyaviy koeffitsentlarining tahlili o'tkazish, koeffitsentlar dinamikasini o'rganish, koeffitsentlarning omilli tahlil qilinadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish orqali daromadlarni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish yo'li bilan foyda ko'rsatkichlarini, shuningdek rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilashga erishiladi.

Banklarda daromadlarni oshirish eaziga foydani ko'payishi, banklarning to'lovga qobilligini va moliyaviy barqarorligini yaxshilaydi. Bu esa banklarning moliyaviy holatini yaxshilanishidan darak beradi.

Tashqi iqtisodiy omillarga bankning moliyaviy faoliyatiga ta'sirini o'rganish zaruriyati bo'yicha investitsion omillar, valyuta kursidagi o'zgarishlar, inflyatsiya jarayonlar va boshqalar baholanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda tahlilning turlari uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha guruhlab berilgan. Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishda iqtisodiy tahlilni turlarga ajratganda uning mazmuniga alohida ahamiyat berish lozim. Ko'plab adabiyotlarda tahlilni mazmuni bo'yicha, tahlil qilinayotgan davri bo'yicha, o'tkazish joyi (makon)i bo'yicha, hisob tizimi va boshqaruv ob'ektiga qarab turlarga bo'linadi.

Jumladan tahlil mazmuniga ko'ra global, lokal va tematik tahlillarga bo'linadi.

Global tahlil – bunda tahlil qilinayotgan sub’ekt ko’rsatkichlari to’liq va batafsil tahlil qilinadi.

Lokal tahlil – bunda tahlil qilinayotgan sub’ektning alohida qismi, bo’limi tahlil qilinadi.

Tematik tahlil – bunda sub’ektning biror jarayonlari yoki alohida mavzular bo’yicha tahlil o’tkaziladi.

Tahlil makon nuqtai nazaridan bankning har bir bo’limida alohida olib borilishi lozim. Tahlil kimlar tomonidan o’tkazilishi (sub’ektlari)ga ko’ra ichki va tashqi tahlillarga bo’linadi.

Ichki tahlilning xususiyatlari:

- bankning xodimlari tomonidan o’tkaziladi;
- faoliyat ko’rsatkichlari to’liq yoki qisman tahlil qilinishi mumkin;
- ayrim ko’rsatkichlar sir saqlanishi mumkin va h.k.

Tashqi tahlilning xususiyatlari:

- uni ta’rischilar, soliq idoralari va boshqa tashqi foydalanuvchilar o’tkazadilar;
- faqat moliyaviy hisobot ma’lumotlari asosida o’tkaziladi;
- bunda asosan tijorat bankining moliyaviy holatiga baho beriladi.

Bankning daromad va xarajatlar tahlil qilishda foydalaniladigan barcha usullarni uchta katta guruhlariga ajratish mumkin:

1. Umumlashtiruvchi ko’rsatkichlarni hisoblash uslubi;
2. Boshlang’ich tahlil o’tkazish uslubi;
3. Omilli tahlil o’tkazish uslubi.

Daromad va xarajatlarning dastlabki tahlil usullaridan yana biri guruhlashdir. Guruhlash usuli - quyidagi turlarga bo’linadi:

1. Tipologik;
2. Strukturaviy;
3. Analitik.

Tipologik guruhlash usuli – bu daromad va xarajatlar tahlilini ma’lum bir turlari bo’yicha o’tkazishdir. Misol uchun bank daromadlarini tahlil qilish

jarayonida ularni foiz daromadlari va foizdan tashqari daromadlar bo'lgan holda guruhlab olishimiz mumkin.

Strukturaviy usuldan foydalanib bank daromadini tahlil qilish orqali biz hamma turdagi daromadning ulushini va ularni tendentsiyasini aniqlay olishimiz mumkin. Strukturaviy usulning qo'llashdan ko'zlangan maqsad bank daromadliligini asosiy omillarini va daromadning stabilligini ochib berishdir.

Bank xarajatining strukturaviy tahlili esa xarajatlarning asosiy turlari ularning o'sish tempi va omillarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Bundan tashqari daromadlar va xarajatlar tahlilida qo'llaniluvchi yana bir usul nisbiy miqdorlar, o'rtacha miqdorlar usullaridir. SHuningdek, zanjirli bog'lanish usuli ham mavjuddir. Ushbu usulda bir nechta ko'rsatkichlar o'zaro almashtiriladi va o'sha ko'rsatkichning yakuniy natijaga ta'siri aniqlanadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- banklarning hisobot davrida olgan foydasini (yoki zararini) aniqlash;
- foydaning belgilangan reja va o'tgan davrlarga nisbatan farqini aniqlash;
- foydaning shakllanishini, ya'ni daromadlar va xarajatlar qanday o'zgartirilganligini o'rganish hamda ushbu o'zgarishlar sabablarini aniqlash;
- banklarning faoliyati davomida tejamkorlikka qay darajada rioya qilinganligini o'rganish;
- rentabellik (foydalilik) ko'rsatkichlarini aniqlash va ularning o'zgarishlarini o'rganish;
- banklarning daromadlarini oshirish va xarajatlarini kamaytirish yo'li bilan bank foydasini ko'paytirish bo'yicha ichki imkoniyatlarni aniqlash va shu kabilar.

Bozor munosabatlari sharoitida banklar ham boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari o'z faoliyatidan olgan daromadlari hisobidan qilgan xarajatlarini qoplagan holda, ma'lum miqdorda foyda olib faoliyat yuritishlari lozim. Foyda banklar faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalarini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichdir. Banklarning foydasi (agar ular faoliyatini zarar bilan

yakunlagan bo'lsa, zarari) muayyan hisobot davrida (oy, chorak, yil) olingan daromadlardan qilingan xarajatlar, soliq va boshqa to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng qolgan qismidir.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni quyidagi tartibda guruhlashtirish mumkin:

1. Moliyaviy hisobot: umumiy moliyaviy hisobot, aylanma qaydnoma, moliyaviy hisobotni boshqa shakllari.
2. Moliyaviy va ta'sis hujjatlari: ta'sis shartnoma, bank nizomi, bank aksionerlarining (paychilarining) ruyxati, litsenziya, auditorlik xulosasi, yillik hisobotlar, balanslar.
3. OAV (ommaviy axborot vositalari) axborotlari: banklar reytingi, banklar haqidagi analitik maqolalar.
4. Uchinchi tomondan olingan ma'lumot: mutaxassislar xulosasi, bank mijozlarining fikrlari.

Xulosa qilib aytganda, banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish uslubi banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar yig'indisidan tashkil topadi, tahlil qilish maqsadidan kelib chiqib bu usullardan tahlilda foydalaniladi.

**2-BOB. TIF “MILLIY BANK” PAXTAOBOD FILIALIDA DAROMAD VA XARAJATLAR TAHLILINI TASHKIL ETISHNING O’ZIGA XOS JIHATLARI.**

**2.1. TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida daromadlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.**

Banklarning daromadlarini tarkibi va tuzilmasini boshlang’ich baholash jami daromadlar tarkibida foizli va foizsiz daromodlarning salmog’ini baholashdan boshlanadi. Banklarning daromadlarini tarkibi va tuzilmasini tahlil qilishda haqiqatdagi ko’rsatkichlar biznes rejadagi ko’rsatkichlar bilan yoki hisobot yilidagi ko’rsatkichlar o’tgan yildagi ko’rsatkichlar bilan mos ravishda taqqoslanadi.

Quyidagi 2-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filiali daromadlari tarkibi va tuzilmasini tahlil qilamiz.

**2-jadval**

**TIF “Milliy bank” Paxtaobod filiali daromadlari tarkibi va tuzilmasi tahlili**

**(ming so’m hisobida)**

Daromadlarning tarkibi	2013 yil		2014 yil		Farqi (+; -)	
	Summa	Salmo- g’i %	Summa	Salmo- g’i %	Summa	Salmo- g’i %
Foizli daromadlar	477791,6	56,48	502243,5	56,7	+24451,9	+0,22
Foizsiz daromadlar	368089,5	43,52	383556,2	43,3	+15466,7	-0,22
Jami daromadlar	845881,1	100,0	885799,7	100,0	+39918,6	-

YUqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida jami daromadlari 2014 yilda 885799,7 ming so’mni tashkil etgan bo’lib, 2013 yildagidan 39918,6 ming so’mga ortgan. Jami daromadlar tarkibida 2014 yildagi foizli daromadlar 502243,5 ming so’m bo’lib, jami

daromadning 56,70 foizni tashkil etgan. Foizsiz daromadlar esa 43,3 foizni tashkil etgan. 2013 yilda jami daromadlar 845881,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, jami daromadlar tarkibida foizli daromadlar 477791,6 ming so'mni va foizsiz daromadlar 368089,5 ming so'mni tashkil etgan. Natijada, hisobot yilida jami daromadlar tarkibidagi foizli daromadlarning salmog'i o'tgan yildagidan +0,22 foizga ortgan, xuddi shuningdek, foizsiz daromadlarning salmog'i – 0,22 foizga kamaygan.

Demak, aytish mumkinki, TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida olingan daromadlar tarkibida foizli va foizsiz daromadlarni salmog'i o'tgan yilga nisbatan 0,22 foizga o'zgargan bo'lsada, bankda hisobot yilida olingan foizli va foizsiz daromadlar o'sgan. Bu esa TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida 2014 yildagi olingan daromadlarni ijobiy bo'lgan deb baholash mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy bank Boshqaruvining 2008 yil 3 maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida yo'riqnomaga asosan olib boriladi.

Banklar tizimida buxgalteriya hisobini yuritishni samaradorligi ko'p jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Chunki, buxgalteriya hisobi va nazoratni puxta yo'lga qo'ymay turib o'z vazifalarini to'g'ri bajarilishini ta'minlab bo'lmaydi. Buning uchun, albatta, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tuzishning tamoyillari hamda uslublarini chuqur va atroflicha tushunish talab qilinadi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish, operatsiyalarni amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qattiq rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Banklarda bajarilayotgan operatsiyalar buxgalteriya hisobi O'zR AV 13.08.2004 y. 773-17-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MBB 17.07.2004 y. 15/3-son Qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasiga asosan hisobga olib boriladi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishda uning faoliyati natijasi bo'lgan daromad va xarajatlarni hisobga olish va ularni hujjatlarda to'g'ri aks ettirilishi muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarida daromadlar hisobvaraqlar rejasi bo'yicha 2 ga bo'lib hisobga olinadi:

1. Foizli daromadlar.
2. Foizsiz daromadlar.

Foizli daromadlar – bu qisqa, o'rta va uzoq muddatli ssudalar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga va boshqa banklarga berilgan ssudalar, qimmatli qog'ozlar savdosi uchun mo'ljallangan hisobvaraqlar bo'yicha, sotib olingan veksellar, mijozlarning majburiyatlari, bankning to'lanmagan aktseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari, jismoniy shaxslarga, yakka tartibdagi tadbirkorlarga, davlat korxonalar va tashkilotlariga, jamoat tashkilotlariga, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar, shirkatlar va korporatsiyalariga berilgan ssudalariga hamda sud jarayonidagi ssudalar va investitsiyalar bo'yicha foiz ko'rinishidagi daromadlardir.

Tijorat banklarida 40200 dan 41205 hisobvarag'igacha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli daromadlari hisobga olib boriladi.

41400 dan 42609 gacha bo'lgan hisobvarag'i bankning turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga berilgan qisqa muddatli ssudalari bo'yicha foizli daromadlarni hisobga olish uchun ajratilgan.

42800 dan 43805 gacha bo'lgan hisobvaraqda bankning turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga bergan o'rta muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlari qayd qilinadi.

43900 dan 44605 gacha bo'lgan hisobvaraqda bankning turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga bergan uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli daromadlar hisobi yuritiladi.

44700 hisobvarag'ida sud jarayonidagi ssudalar bo'yicha foizli daromadlari aks ettiriladi.

44800 hisobvarag'ida investitsiya bo'yicha foizli daromadlar hisobga olinsa 44900 hisobvarag'ida esa boshqa foizli daromadlar hisobga olinadi.



Tijorat banklarining foizli daromadlarini hisobga oladigan hisobvaraqlar quyidagi hollarda debetlanadi:

- noto'g'ri hisoblangan foizlar qaytarilsa;
- olingan foizlarni qaytarilsa;
- yakuniy moliyaviy natijalarni 31206 – “Sof foyda (zarar)” hisobqarag'iga o'tkazilsa.

Tijorat banklarida 40200 dan 41205 hisobvarag'ining kreditida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlar bo'yicha kelib tushgan foizli daromadlar summasi aks ettiriladi.

41400 dan 42609 hisobvaraqlarning kreditida bankning turli xo'jalik yurituvchi sub'ektlariga berilgan qisqa muddatli ssudalari bo'yicha kelib tushgan daromadlar summasi aks ettiriladi.

## 2.2. TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida xarajatlarning tarkibi va tuzilmasi tahlili.

Banklarda tomonidpn qilingan xarajatlarni tahlil qilganda jami xarajatlarning tarkibida foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarni salmog’ini baholash maqsadga muvofiq bo’ladi. Bu bilan jami xarajatlar tarkibida sanab o’tilgan xarajatlarni salmog’i qanday va qancha bo’lganligini baholash imkoniyatiga ega bo’lish mumkin. Quyidagi 5-jadval ma’lumotlaridan foydalanib, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida xarajatlar tarkibi va tuzilmasini tahlil qilamiz.

### 3-jadval

#### TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida xarajatlar tarkibi va tuzilmasi tahlili

(ming so’m hisobida)

Xarajatlarning tarkibi	2013 yil		2014 yil		Farqi (+; -)
	Summa	Salmog’i %	Summa	Salmog’i %	
Foizli xarajatlar	329744,5	45,57	348564,0	44,75	+18819,5
Foizsiz xarajatlar	217186,4	30,01	236245,6	30,33	+19059,2
Operatsion xarajatlar	176700,2	24,42	194127,6	24,92	+17427,4
Jami xarajatlar	723631,1	100,00	778937,2	100,0	+55306,1

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida jami xarajatlar 2014 yilda 778937,2 ming so’mni tashkil etgan bo’lib, 2013 yildagidan +55306,1 ming so’mga ortgan. 2014 yilda qilingan foizli xarajatlar 348564,0 ming so’m bo’lib, jami xarajatlarning 44,75 foizini tashkil etgan. Foizsiz xarajatlar 2014 yilda 236245,6 ming so’mni tashkil etib, 2013 yildagidan +19059,2 ming so’mga ortgan va jami xarajatlarga nisbatan 30,33 foizni tashkil etgan. 2014 yildagi operatsion xarajatlar 194127,6 ming so’mni tashkil etgan bo’lib, 2013 yildagidan +17427,4 ming so’mga ortgan. Bu esa jami xarajatlarning +55306,1 ming so’mga ortib ketishiga sabab bo’lgan.

Demak, aytish lozimki, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida xarajatlar hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan o'sgan. Xarajatlarning bunday o'sishi birinchidan mazkur bankda ko'plab operatsiyalarni amalga oshirilganligini bildirsa, ikkinchidan esa bankning xarajatlari foizli, foizsiz va boshqa operatsion xarajatlar hisobiga ortganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda qilingan xarajatlarni tarkibi va tuzilmasini tahlil qilganda, qilingan xarajatlar tarkibida foizli daromadlarni, foizsiz daromadlarni hamda bankning operatsion xarajatlari hajmini hamda ularning jami xarajatlar tarkibida tutgan salmog'ini to'liq baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda bo'lgani kabi tijorat banklari moliyaviy natijalarni yakuniy holati foyda yoki zarar bilan tugallanadi.

Bank tizimini erkinlashtirish munosabati bilan tijorat banklari iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash va raqobatbardoshligini ta'minlash xarajatlarni minimallashtirishga qaratilishini taqazo etmoqda.

Bank uchun daromadlilik, birinchi navbatda xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvoffaqiyatlar, boshqalar bir xil sharoitda ishlasada, joriy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Tijorat banklarida daromadlar bilan birga xarajatlar ham muhim hisoblanib, xarajatlar daromadlar bilan birga sof soydani aniqlash imkonini beradi.

SHunday ekan, tijorat banklari daromadlari bilan birgalikda xarajatlarni ham hisobga olish jarayoniga muhim ahamiyat beriladi.

Tijorat banklarida xarajatlar hisobvaraqlar rejasi bo'yicha uch guruhga bo'lib hisobga olinadi:

1. Foizli xarajatlar.
2. Foizsiz xarajatlar.
3. Operatsion xarajatlar.

Tijorat banklarida foizli xarajatlar – bu talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma, muddatli depozitlar, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarning hisobvaraqlari, bankning okteplari, qisqa, o'rta va uzoq

muddatli ssudalar, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foiz ko'irinishi shaklidagi xarajatlardir.

Tijorat banklarining foizli xarajatlari buxgalteriya hisobining quyidagi hisobvaraqlarida hisobga olinadi:

50100 dan 51126 hisobvaraqlarigacha bankning talab qilib olingunga qadar saqlanadigan, jamg'arma, muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;

51600 dan 52111 hisobvaraqlarigacha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar;

52600 – hisobvarag'ida bankning to'lanmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar;

53100 dan 54195 hisobvaraqlarigacha qisqa, o'rta va uzoq muddatli ssudalar bo'yicha foizli xarajatlar;

54200 dan 54395 hisobvaraqlarigacha qimmatli qog'ozlar va ular bilan amalga oshiriladigan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar;

54900 hisobvarag'ida esa boshqa foizli xarajatlar aks ettiriladi.

Bankning foizli xarajatlarini hisobga oladigan hisobvaraqlar quyidagi hollarda kreditlanadi:

- to'g'ri hisoblangan foizlar;
- to'langan foizlarning qaytarilishi;
- yakuniy moliyaviy natijalarni 21206 - “Sof foyda (zarar)” hisobvaraqqa o'tkaziladigan summalar aks ettiriladi.

50100 dan 51126 hisobvaraqlarning debetida depozit majburiyatlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

51600 dan 52111 hisobvaraqlarning debetida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarga to'lanishi lozim bo'lgan summalar aks ettiriladi.

52600 hisobvaraqlarning debetida bankning to'lanmagan aktseptlari bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

53100 dan 54195 hisobvaraqlarining debetida qisqa, o'rta va uzoq muddatli ssudalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

54200 dan 54395 hisobvaraqlarining debetida bankning chiqarilgan qimmatli qog'ozlari va bank tomonidan qilingan xarajatlar summasi aks ettiriladi.

54900 hisobvarqning debetida esa boshqa majburiyatlar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizli xarajatlar summasi aks ettiriladi.

### 2.3. TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida daromad va xarajatlarlarning dinamikasi tahlili.

Banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilganda, ularning tarkibi va tuzilmasini baholash tahlil natijalari bo'yicha xulosa chiqarish uchun yetarli darajada ma'lumot bermaydi. SHu sababli TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida olgan daromadlari va qilgan xarajatlarini dinamik tahlil qilish yo'li bilan qator yillar davomidagi o'zgarishini baholash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyidagi 4-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida daromadlarning dinamikasini tahlil qilamiz.

#### 4-jadval

#### TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida daromadlarning dinamikasi tahlili

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	Farq (+; -)	
				2012 yildan	2013 yildan
Bank daromadlari	805460,37	845881,1	885799,7	+40420,73	+39918,6

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, TIF “Milliy bank” Paxtaobod filialida 2014 yilda daromadlar 2013 yildagidan +39918,6 ming so'mga va 2012 yilnisbatan esa +40420,73 ming so'mga ortgan.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni dinamikasini tahlil qilganda daromadlar hamda xarajatlarni dinamik o'zgarishlarini alohida-alohida o'rganish daromadlar va xarajatlar qaysi manbalar hisobiga jiddiy o'zgarganligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda daromadlarning dinamikasini tahlil qilish orqali qator yillar davomida banklarning olgan daromadlarini qay darajada o'zgarganligini baholash imkoniyati yaratiladi.

Banklarning xarajatlarini tahlil qilganda, bank xarajatlarini dinamikasini tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'lib, bunday tahlil qilish orqali qator yillar davomida banklarda qilingan xarajatlarni baholash imkoniyati yaratiladi.

Quyidagi 5-jadval ma'lumotlaridan foydalanib, TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida xarajatlarning dinamikasini tahlil qilamiz.

**5-jadval**

**TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida xarajatlari  
dinamikasi tahlili**

**(ming so'mda)**

Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	Farq (+; -)	
				2012 yildan	2013 yildan
Bank xarajatlari	688335,1	723631,1	778937,2	+35296,0	+55306,1

YUqoridagi 5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida xarajatlar 2014 yilda 2013 yildagidan +55306,1 ming so'mga va 2012 yilga nisbatan +35296,0 ming so'mga ortgan. Aytish lozimki, dinamik o'zgarishlarda xarajatlar daromadlarga nisbatan 2014 yilda 2013 yil hamda 2012 yillarga qaraganda 1,5 barobar ortib borgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, banklarning daromadlari va xarajatlarini dinamikasini tahlil qilishda bu daromadlar va xarajatlarni tarkibi bo'yicha dinamik tahlil o'tkazish orqali qator yillardagi o'zgarishlarni baholash mumkin bo'ladi. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromadlar va xarajatlarni dinamik tahlil qilib, qator yillar davomida daromadlar va xarajatlarni o'sganligini guvohi bo'ldik. Lekin daromadlarni xarajatlarga nisbatan o'sishini yuqori bo'lganligi oldingi savollarda ko'rib o'tdik.

### **3-BOB. BANKLARDA DAROMADALARNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.**

#### **3.1. Banklarning daromadlarini oshirishda moliyaviy resurslarning o'ri va roli.**

Bugungi kunda banklarning resurslaridan samarali foydalanish masalasi bank tajribasidagi eng muhim muammo hisoblanadi. Xozirda har bir bank resurslardan foydalanishni xamma e'tirof etgan uslubning yo'qligi tufayli resurslardan foydalanish ishini o'z bilganicha tashkil etmoqda.

Banki resurslaridan unumli foydalanish, ma'lum vaqt davomida bozordagi tendentsiyalar xaqidagi axborotlarni tahlil qilish, ishlab chiqish va to'plash, shu ma'lumotlarga asoslanib, riskli yo'qotishlarni xisobga olib, bank portfeliga tushadigan daromadlilikni oshirishga yo'naltirilgan bo'sh mablag'larni joylashtirishni hisobga olgan holda oqilona boshqarishga mo'ljallangan jarayonni o'z ichiga oladi.

Banklar uchun resurslarni shakllantirishda kapital operatsiyalarni ahamiyati o'ta muximdir. Bu operatsiyalar bankning barcha turdagi faoliyatiga ta'sir qiladi, ya'ni o'z resurslari xajmini o'zgartirish, kredit resurslarini jalb etish, kreditlar berish kabi va boshqa ko'pgina operatsiyalar ushbu operatsiyalar bilan bevosita bog'liqligini bildiradi.

Bankning o'z-o'zini boshqarishi, ularning qonun chiqaruvchi va tartibga soluvchi nazorat organlar tomonidan qo'yiladigan talablarga muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan. Bu muvofiqlik banklar tomonidan majburiy zahiralar fondiga mablag'lar o'tkazishni tartibga solish va soliqlarni rejalashtirish jarayonida ta'minlanadi. Bank faoliyatini boshqarishning shakl va vazifalarini saqlab qolish uchun boshqarishning tavakkalchilikni kamaytirishga va maksimal daromad olishga yo'naltirilgan yangi strategik usullarni talab etadi.

Tijorat bankini boshqarish – resurslar strategiyasini ishlab chiqishda tashqi muhitni kengroq izohlash zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari nafaqat tashqi muhitni balki bank faoliyat ko'rsatayotgan ichki muhitni ham e'tiborga olish zarur.



Bank sohasida bozor iqtisodiyotining muhim belgisi – mijoz uchun iqtisodiy kurash hisoblanadi. Bu sohada albatta banklarning raqobatbardoshligini, daromadlilik va nufuzini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Raqobat bank xizmatlari bozorida ustalik bilan harakat qilishni va iste'mol qiymatining egiluvchanligini ta'minlashni talab etadi. O'z navbatida narx mexanizmining harakat qilishida bank operatsiyalari tannarxi xisob-kitobi zarur. Bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri – daromad miqdorini aniqlovchi hamma omillarni bilish, uni shakllantirish va rivojlantirish jarayonini boshqarishni uddalashdan iborat.

Banklar foydasini o'z maxsulotlarini mohirona realizatsiya qilish orqali shakllantiradi. Bank mahsuloti bo'lib turli xildagi xizmat turlari (hisob-kassa xizmati, kredit berish, kafolat berish va x.k) hisoblanadi. Boshqarishning ta'sirchanligi va unumdorligi bevosita bank resurslaridan foydalanish natijalariga tayangan xolda aniqlanadi. Boshqarish jarayonida nafaqat aktiv va kapitallar aylanmalarining uyg'unlashuvi, omonat turlari va mablag'larni joylashtirish turlari orasidagi nisbatning to'g'riligiga, balki katta daromad olish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bankning jami aktiv va majburiyatlari bank portfelining tarkibiy qismi hisoblanadi. Aktiv va kapitallarni boshqarish – bank portfelini tuzilishi, xajmi va daromadlilikini tahlil qilishga mo'ljallangan.


Portfelli tahlilning maqsadi qaror qabul qilinadigan aniq davrga mablag'lardan foydalanishni maksimallashtirishdan iborat bo'ladi. SHu bilan birga «portfel»ni tanlashda nafaqat foyda miqdorinigina emas, balki xatar elementi, uni kamaytirish harakati ham xisobga olinadi. Portfel muammosi yechimi qarama-qarshiliklar birligiga erishish bilan bog'liq, ya'ni bir tomondan maksimal foydani ta'minlash bo'lsa ikkinchi tomondan minimal xatarni oldini olish, yoki boshqacha aytganda likvidlikni ta'minlash zarur bo'ladi.

Ma'lumki resurslarni jalb etish uchun qilinadigan harajatlar operatsion harajatlarning asosiy qismini tashkil etadi. Bu ko'pgina banklarda barcha operatsion harajatlarning 90 %ni tashkil qiladi. Bu kabi banklar resurslarining

shakllanishining o'ziga xosligi shundan iboratki, ularning asosiy manbai jalb etilgan mablag'lar hisoblanadi.

Samaradorlikni baholashda harajatlar va natijalarni solishtirish zarur bo'lganligi uchun bank faoliyatini tahlil qilishda moliyaviy resurslar ratsional joylashtirilganligini baholash maqsadga muvofiqdir.

**1-rasm. Bank moliyaviy resurslarining samarali boshqarishni tahlili.**



- Kassa.
- Kreditlar
- Qimmatli qog'ozlar.
- Asosiy fondlar.

- Muddatli omonatlar.
- Talab qilinguncha saqlanadigan depozitlar buyicha qoldiq.
- Banklararo kreditlar.
- O'z mablag'lari.

Bank mablag'larini tarkibini tahlil etish o'z mablag'lari manbaining ulushi va xajmini aniqlashni ko'zda tutadi. Bank mablag'lari tarkibini o'rganib chiqishda ma'lum aktivlar guruxini tahlil etishni talab etadi. Aktivlar tuzilmasida daromad

keltirayotgan aktivlar ulushining balans valyutasiga nisbatan tez sur'atlar bilan oshib borayotgan o'zgarishlar dinamikasi ijobiy hisoblanadi.

Qiyosiy uslub guruhlash uslubidan kelib chiqqach hisoblanadi. Balansning guruhlangan kapital xisobraqamlari kattaligi solishtirilganda shuni ko'rish mumkinki, umumiy manbalar miqdorida muddatli omonatlar va banklararo kreditlar ulushining ortib borishi bir tomondan, resurs bazasi barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mablag' manbalarini boshqarishni yengillashtiradi. Ikkinchi tomondan, uning qiymatini oshiradi.

Kapital operatsiyalarni qiyosiy tahlil qilish uslubidan foydalanib, ularning bank likvidliligiga ta'sirini aniqlash va zarur xollarda mablag' jalb etish siyosatini o'zgartirish mumkin.

Banklarning ish tajribasidan ko'rinadiki, banklar likvidlilik me'yorlarining ruxsat etilgan eng kichik qiymatlari chegarasida faoliyat yuritsalar, ya'ni pul mablag'larini kredit resurslari sifatida jalb etish bo'yicha ularga berilgan xuquqlardan to'la foydalansalar katta foydaga erishadilar.

Alohida resurs kichik guruhlarining jalb etilgan mablag'lar umumiy summasidagi solishtirma ulushi har bir resurs turi va tegishli iqtisodiy kontragentlarning bank kredit potentsialidagi o'rne hamda rolini xarakterlaydi. Daromadlilik nuqtai nazaridan bank jalb etadigan mablag'lar tuzilmasi korxonalar va shaxsiy tarmoq foydasiga o'zgargani afzaldir. Chunki ular banklararo kreditlarga nisbatan arzonga tushadi.

Xozirgi sharoitda respublika bank tizimining likvidliligi va barqarorligi mamlakat uchun g'oyat muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki birgina bankning inqirozga uchrashi ham butun respublikada to'lov tizimining buzilishi kabi salbiy oqibatga olib kelishi mumkin.

Bank likvidligini ta'minlashga bankning kapitallari va aktivlarini muayyan tartibda boshqarish orqali erishiladi. Boshqacha aytganda, bank likvidligini boshqarishning axvoli- uni tashkil etuvchi ikki asosiy omilga uzviy bog'liq. Bular: bank kapitalining yetarlilik darajasi xamda bankka jalb etilgan va joylashtirilgan mablag'larning muddati va miqdori bo'yicha o'zaro mosligidir.

Banklar likvidligini ta'minlash va uni oqilona boshqarish asosida bank aktivlari va majburiyatlari oqimini, ya'ni bank mablag'larining manbalari va bu mablag'lardan foydalanish muddatlarini muvofiqlashtirish yotadi. Bank boshqaruvchisi ikkala oqimning o'zgarishini oldindan ko'ra bilib rejalashtirishi va natijada, likvid mablag'larning taklifi va ularga bo'lgan talab o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan bankning sof likvid pozitsiyasiga erishishi lozim.

Bank likvidligi va foiz stavkalari xatarini samarali boshqarish maqsadida Xalkaro bank amaliyotida disbalansni boshqarish strategiyasi qo'llaniladi. Uning qisqacha mohiyati shundan iboratki, bank boshqaruvchilari imkoni boricha foiz stavkalarining o'zgarishiga sezgir bo'lgan aktivlar va kapitallarning xajmini tenglikda ushlab turishga harakat qilishlari lozim. Natijada, foiz stavkalarining oshishi yoki kamayishining bank daromadlilik darajasiga ta'siri cheklanadi, yoki boshqacha aytganda, bank foiz stavkalari xataridan nisbatan ximoyalanaadi.

Amaliyotda banklarning likvidlik darajasiga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud bo'lib, ulardan biri majburiy zahiralarda fondiga ajratmalar mexanizmidir. Xozirgi kunda ushbu fondga ajratma me'yori banklarning muddatsiz va muddati uch yilgacha bo'lgan depozitlariga nisbatan 20 foiz, muddati uch yildan ortiq bo'lgan depozitlariga nisbatan 10 foiz miqdorida o'rnatilgan (jismoniy shaxslarning depozitlari bundan mustasno).

Bu xol banklar faoliyatida quyidagi holatni keltirib chiqaradi. Birinchidan, ushbu banklarning resurs bazalari va shunga mos ravishda aktivlarga qilinadigan qo'yilmalaridan oladigan daromadlari miqdori kamaysa, ikkinchidan, ushbu jalb qilingan depozitlar bahosi oshib ketadi.

Buni quyidagi misolda ko'rishimiz mumkin. Masalan, bank 10 million so'm miqdoridagi mablag'ni yuridik shaxslardan bir yil muddat bilan yillik 24 foiz stavkada depozitlarga jalb qildi deylik. Ushbu mablag'ning 20 foizi, ya'ni 2 million so'mi Markaziy bankdagi majburiy zahira fondiga ajratma qilinadi. Natijada, birinchidan, ushbu 2 million so'mga tijorat bankining resurs bazasi kamayadi va shu sababli, shu miqdorda uning resurs bazasi kamayib undan daromad olish imkoniyati yo'qoladi, ya'ni, tijorat banki majburiy zahiralarda fondiga

o'tkaziladigan 2 million so'm mablag'ni yillik 36 foiz bilan bir yil muddatga kredit tariqasida bergan taqdirda yil davomida 720 ming so'm daromad olgan bo'lar edi. Ikkinchidan 10 million so'm jalb qilingan depozitning bahosi yillik 24 foiz stavkada bo'lsada, majburiy zahira fondiga qilingan ajratmadan so'ng uning xaqiqiy bahosi oshib ketadi. Buni quyidagi formula bilan aniqlasa bo'ladi. (YAt – depozitlar uchun yakuniy to'lov)

$$YAt = 10 \text{ mln.sum} * 24\% / (10 \text{ mln.sum} - 2 \text{ mln.sum}) = 30\%,$$

ya'ni muddatli depozitlar yillik 24 foiz stavkada jalb etilgan bo'lsa-da, majburiy rezerv fondiga qilingan ajratmadan so'ng uning xaqiqiy tannarxi yillik 30 foizni tashkil etadi.

YUqoridagi xol banklarning rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, resurslar tannarxini oshishi orqali foiz xatari darajasining oshishiga olib keladi. Bunday vaziyat banklarni daromad olish maqsadida aktivlarni yuqori foizlarda joylashtirishga majbur etadi va oqibatda, banklar mablag'larni o'rta va uzoq muddatga ishlab chiqarish sohasiga qo'yilma qilgandan ko'ra, tez va katta daromad keltiradigan noishlab chiqarish asosan savdo sohasiga qo'yilma qilishni afzal ko'radilar.

YUqoridagi holatni xisobga olgan xolda yuridik shaxslardan jalb qilinadigan muddatli depozitlarga nisbatan majburiy zahira talablarini belgilashda imtiyoz berilsa maqsadga muvofiq bular edi. Bu banklarning resurs bazasini mustaxkamlashga imkoniyat yaratadi.

### **3.2. Bank kreditlari bank daromadlarini oshirishning bosh omili sifatida.**

Bank o'z tabiati jihatidan moliya-kredit tashkiloti bo'lib, uning uchun kredit operatsiyalari bank xizmatlarining bir ko'rinishi bo'lib, u boshqa bank operatsiyalari, jumladan valyuta, qimmatli qog'ozlar emissiyasi va boshqa operatsiyalari ichida asosiy o'rin egallaydi.

Kredit operatsiyalari deganda shartlar asosida qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida ma'lum bir miqdordagi pulni qarzga berish tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda qarzdor qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berishi va undan tashqari ma'lum summani to'lashi lozim. Bu summa qarzga olingan mablag'lar uchun to'lov bahosi bo'lib, u kredit uchun foiz deb ataladi. Odatda zamonaviy bank kreditni pul shaklida qarzga beradi.

Bank o'z kredit operatsiyalari uchun faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan pul mablag'larini ham ishlatadi. Bunda boshqa tijorat banklaridan yoki Markaziy bankdan olgan kredit bilan bir qatorda, bank shuningdek pul mablag'larini o'z omonatchilaridan va tashkilotlardan turli hisob varaqlarga jalb yetadi. Bu yerda mablag'lar kabi hisob-kitoblari, joriy, jamg'arma, hujjatlar talab qilinguncha, muddatli depozit, valyuta va boshqa hisob varaqlar qo'llaniladi. Bunday pul mablag'larini jalb etish ham kredit xarakteriga ega, chunki u ham qaytarishlilik, muddatlilik va to'lov shartlariga asoslanadi, bank esa bu yerda qarzdor sifatida namoyon bo'ladi.

Tijorat banki kredit berishda mijozlarning moliyaviy ahvoli, balansining likvidliligi, o'z mablag'lariga ega ekanligi, hozirda va kelajakda rentabellik darajasi va kreditdan samarali foydalanishi va uni qaytarish imkoniyatlarini xarakterlovchi boshqa sifatlariga alohida e'tiborni qaratib har bir mijozga alohida yondoshadi.

Kreditning to'lovi qarzdor tomonidan bankka kreditdan foydalanganligi uchun haq to'lashi lozimligini bildiradi. To'lanadigan haq kredit summasiga nisbatan foizda belgilanadi. Bank amaliyotida yillik (kreditdan bir yil foydalanganlik uchun foiz darajasi) yoki oylik (kreditdan bir oy foydalanganlik uchun foiz

darajasi) foizlar qo'llaniladi. Kredit uchun foiz darajasi o'z mohiyatiga ko'ra bank kreditining bahosidir.

Bank kreditidan foydalangan vaqt uchun to'lanadigan foiz kredit narhi hisoblanadi. Kredit narhi Markaziy bank qayta moliyalash stavkasi me'yori bilan tartibga solinadi va mahsulot hamda xizmatlar tannarxi darajasini hisobga olib belgilanadigan eng yuqori ko'rsatkichdan oshib ketmasligi kerak.

Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

2014 yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik<sup>3</sup>”.

Markaziy bank muddatli qarzlarni bo'yicha banklarga qayta moliyalash stavkasini ko'pi bilan 1,5 barobar oshirilishiga ruxsat etadi.

Muddati o'tgan kredit uchun foizlar 90 kungacha hisoblanadi. SHu vaqt ichida qarzni qaytarilmasa, foiz hisoblash to'xtatiladi.

Muddati o'tgan foizlar bo'yicha qarzni qoldig'i kredit shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda to'lov talabnomasi yoki memorial order bilan rasmiylashtirilib, №2-sonli kartotekaga qo'yiladi, hamda kalendar navbatidagi tartibda so'ndirib boriladi. Bunda dastlab hisoblangan foizlar bo'yicha qarzlarni va shundan keyin asosiy qarzni qoplanadi.

Bozor sharoitida qarzni berilayotgan mablag' o'ziga xos tovarga aylanadi. Bu tovarning boshqa tovarlardan farqi shundaki, uning o'zi emas, balki undan foydalanish imkoniyati (huquqi) sotiladi va buning uchun foiz ko'rinishida haq to'lanadi. Kreditning to'lovliligi qarzni oluvchilarni imkoni boricha o'z mablag'laridan samarali foydalanishga majbur qiladi. Olingan foiz vositasida bank o'z mablag'laridan samarali foydalanishga majbur qiladi, shuningdek bank o'z

---

<sup>3</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014 yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2015 yil 17 yanvar 11-son.

xarajatlarini qoplash va jalb etilgan mablag' egalariga foiz to'lash imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Kreditlash jarayonida bank bilan qarzdorlarning o'zaro munosabatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kreditga ehtiyojni to'g'ri aniqlab olish;
- kreditni aniq maqsadlarga yo'nalishi;
- kreditlash usullari.

Qarz oluvchining o'z mablag'larini ham, qarz mablag'larini ham yo'naltirilayotgan xo'jalik tadbirlarida ishtipok etishi hamda bu ishtirokning tarkibi va darajasini aniqlab olish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qarz oluvchi o'z mablag'larining kredit yo'naltirilayotgan tadbirlarda ishtiroki qat'iy belgilab qo'yilgan emas. Biroq, bank mijozining kredit qobiliyatini aniqlash orqali uning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganligini hisobga olgan holda kredit beradi.

Kreditning aniq maqsadlarga berilishi - bu bank tomonidan kreditni korxonaga aniq maqsadlarga ishlatishni bildiradi. Bu maqsadlar korxonada taqdim etadigan biznes-rejada o'z ifodasini topadi. Bank kreditning maqsadli ishlatilishini tekshirib boradi.

Bozor munosabatlari chuqurlashuvi bilan xo'jalik ob'ektlarini kreditlashdan xo'jalik sub'ektlarini, ularning to'lov oborotidagi uzilishlarni kreditlashga o'tib boriladi.

Kreditlash usullari - bu kreditning berilishi va qaytarilishi usullaridir.

Banklarda kreditlashning ikki xil usuli qo'llaniladi. Birinchisida kredit muayyan maqsadga va muayyan muddatga beriladi (kredit liniyasini ochmasdan). Ikkinchi usulda bank tomonidan belgilab qo'yilgan limitdan ortmagan holda kreditlash amalga oshiriladi. Qarzdorning ehtiyojlariga muvofiq ravishda muayyan davr mobaynida uning to'lov hujjatlari bank tomonidan kredit hisobidan to'lab beriladi (kredit liniyasi ochish).

Agar xarid qilingan tovarning haqini darhol to'lash yoki yaqin orada boshqa biron bir xarajat qilish zarur bo'lsa-yu, lekin buning uchun korxonaning xususiy



kapitali yetmasa, bunday hollarda “korxonada bir gallik qarz mablag’lariga ehtiyoj tug’iladi” deyiladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun “kredit liniyasi ochilmagan” ssuda hisobvarag’idan foydalaniladi.

Bunday hisobvaraقدan kredit berish bir martalik ssuda berish yo’li bilan amalga oshiriladi. Bunday ssudaning har biri uchun bank alohida qaror qabul qiladi. Bu shuni bildiradiki, agar kelgusida ya’ni kredit qarzi qoplangandan so’ng, yana kredit zarur bo’lsa, korxonah rahbariyati bank talab qilgan hujjatlarning yangi to’plamini to’liq ishlab chiqishi, xuddi birinchi kredit olganidek muzokaralar olib borishi va barcha huquqiy rasm-rusumlarini bajarishi lozim. Bu esa, barcha qarz oluvchilar kredit olish uchun bank talab qilgan hujjatlar to’plamini yangidan qilish uchun qo’shimcha unumsiz xarajatlarni qilishi zarurligini anglatadi.

SHuning uchun, agar kredit resurslariga ehtiyoj uzoq muddatli va takrorlanuvchan ekanligi oldindan tahlil qilinsa, “kredit liniyasi ochiq” kredit berish to’g’risida shartnoma tuzish qulayroq ekanligi va arzonga tushishi ayon bo’ladi.

Kredit liniyasi - bu korxonah bilan bank o’rtasida “belgilangan summada qarzlar turkumini berish” to’g’risida tuziladigan kelishuvdir. Kredit liniyasini ochishda bank tomonidan kreditlash limiti belgilanadi. SHu limit doirasida kredit berishda bank bilan qo’shimcha muzokaralar olib borish talab qilinmaydi.

Kredit muhokamasida alohida e’tibor berib o’rganiladigan narsa – bu berilgan kredit va u bo’yicha hisoblanadigan foizlarni belgilash va qaytarish tartibidir.

O’zbekiston Respublikasining “Bank va bank faoliyati to’g’risida” gi qonunida “Pul mablag’larini jalb qilish, hamda ularni qaytarishlilik, to’lashlilik va muddatlilik shartlari asosida o’z nomidan jonlantirish uchun tuzilgan muassasa bankdir” deb qayt etilgan.

Bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko’ra quyidagicha bo’ladi:

- qisqa muddatli kreditlar;
- uzoq muddatli kreditlar.

Qisqa muddatli ssudalar – bu ssuda berilgan sanadan bir yilgacha muddatga berilgan ssudadir.

Uzoq muddatli ssudalar – bu ssuda berilgan sanadan boshlab besh yildan ortiq muddatga berilgan ssudadir.

Bundan tashqari bank kreditlari maqsadiga qarab ham farqlanadi.

- mavsumiy harajatlar uchun;
- to'lov hujjatlari uchun kredit;
- aylanma mablag'larni to'ldirish uchun va boshqa asosiy aktivlar bilan bog'liq harajatlarni moliyalashtirish uchun kredit .

Bank kredit berish uchun jalb qilingan barcha mablag'larni va o'z mablag'larini ishlatishi mumkin. Banklar bu mablag'larning bir qismini majburiy rezervlar sifatida Markaziy bankga o'tkazishi kerak va shuningdek ularning bir qismini yuqori likvid mablag'lar shaklida kassadagi nakd pullar, mijozlarga joriy hizmatlarni to'lash uchun yetarli bo'lishi lozim yoki boshqa turdagi mol - mulkka ega bo'lish va boshqalar uchun ishlatishda saqlanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, kredit operatsiyalari shartlar asosida qaytarishlilik, muddatlilik va to'lovlilik shartlari asosida ma'lum bir miqdordagi pulni qarzga berish tushuniladi, bank tomonidan beriladigan kreditlar muddatiga ko'ra va maqsadiga qarab ham farqlanadi, shuningdek bank kreditlari banklarning daromadlarini ortishida bosh omillardan biri bo'lib hisoblanadi.

## **Xulosa va takliflar**

Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishi va uning ravnaq topishida banklarning tutgan o'рни katta bo'lib, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar natijasida nafaqat o'zlarini, balki xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishiga yaqindan yordam beradi, hamda takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

Banklar – tijorat tashkiloti hisoblanib, quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradilar:

- yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni qabul qilish hamda qabul qilingan mablag'lar hisobidan kreditlar berish yoki investitsiya qilish uchun foydalanish;
- to'lovlarni amalga oshirishda vositachlik qilish.

Banklar – pul muomalasini boshqaruvchi, yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvarag'ini (schyotini) yuritib, ularning to'lovlari yuzasidan ularning hisob-kitoblarini bajaruvchi tashkilot bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari banklar yuridik va jismoniy shaxslarning pul mablag'larini saqlash, kredit berish bilan bog'liq vazifalarni ham bajaradilar.

Banklar tomonidan olinadigan daromadlari foiz ko'rinishidagi daromadlar va foizsiz daromadlardan tashkil topadi, shuningdek banklarning xarajatlari ham o'z navbatida fozli, foizsiz xarajatlar bilan birga boshqa operatsion xarajatlardan tashkil topadi.

Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilishda, daromadlar hamda xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi hamda tahlil qilish uslubidan foydalangan holda tahlilni tashkil qilinib, banklarning daromadlari va xarajatlarini tahlil qilishda qo'llaniladigan usullar yig'indisidan tashkil topadi, tahlil qilish maqsadidan kelib chiqib bu usullardan tahlilda foydalaniladi.

Banklarda olingan daromadlarni tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish yo'li bilan olingan daromadlar tarkibida foizli daromadlarni va foizsiz daromadlar hajmini hamda jami daromadlar tarkibida tutgan salmog'ini to'liq baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Banklarda qilingan xarajatlarni tarkibi va tuzilmasini tahlil qilganda, qilingan xarajatlar tarkibida foizli daromadlarni, foizsiz daromadlarni hamda bankning operatsion xarajatlari hajmini hamda ularning jami xarajatlar tarkibida tutgan salmog'ini to'liq baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

Banklarning daromadlari va xarajatlarini dinamikasini tahlil qilishda bu daromadlar va xarajatlarni tarkibi bo'yicha dinamik tahlil o'tkazish orqali qator yillardagi o'zgarishlarni baholash mumkin bo'ladi. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialida daromadlar va xarajatlarni dinamik tahlil qilib, qator yillar davomida daromadlar va xarajatlarni o'sganligini guvohi bo'ldik. Lekin daromadlarni xarajatlarga nisbatan o'sishini yuqori bo'lganligi oldingi savollarda ko'rib o'tdik.

Bank daromadlari, xarajatlarini omilli tahlil qilish orqali hisobot yilida qilingan daromadlar hamda xarajatlarni o'zgarishi qaysi omillar qanday ta'sir ko'rsatganligi baholanib, ijobiy, salbiy omillarni aniqlash imkoniyatini yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishining yakunida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Banklarda daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish orqali daromadlarni oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish uchun mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlanadi. Bu ichki imkoniyatlarni amaliyotga joriy qilish yo'li bilan banklarning daromadlarini oshirish va xarajatlarni kamaytirishga erishish mumkin. SHu sababli, banklarda mavjud bo'lgan tahlil bo'limida nafaqat mijozlarning moliyaviy hisobotlarini balki, bankning daromadlari va xarajatlarini har uch oyliklarda tahlil qilish lozim. Bu bilan hisobot yilida daromadlarni oshirib, xarajatlarni kamaytirishga erishish mumkin bo'ladi.
2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mijozlar imkon qadar arzon baholardagi va sifatli xizmatlarga bo'lgan talab ortishi bank mijozini ko'paytirishda qo'l keladi. Banklarda ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun belgilangan foizni ma'lum miqdorda kamaytirish berilayotgan kreditlar uchun foizlarni kamaytirish hisobiga mijozlarni ko'paytirishga erishish mumkin. Bank mijozlarining ko'payishi hisobiga ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha daromadlarni ortishini ta'minlaydi.

3. Banklarda daromadlar va xarajatlar tahlilining natijalarini, bank daromadlarini ortishida hissassi yuqori bo'lgan bo'limlarning nomini, ushbu bo'limlarning xodimlarini ismi va familiyasini ko'rsatib, bo'limlar oldiga devoriy gazeta sifatida ilib qo'yilsa, xodimlarning ish faoliyatidagi rag'bat yanada ortib, bank daromadlarining ortishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2003y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni».T., 1996 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni (2000 yil 26 may)
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. T., 2008 y.
5. “O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2003.
6. “Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2003.
7. O'zbekiston Respublikasining “Bank siri to'g'risida” gi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2005.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va respublika hamda mahalliy budjetlarga to'-lovlarning o'z vaqtida kelib tushishini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. 1998-yil 4-fevral.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklarda aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini t'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmoni. 2008-yil 20-fevral, PF-3968.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada yerkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi Farmoni. “O'zbekiston”. 2005-yil 10-iyun.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklarning kapitallashtirishini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori. 2007-yil iyul. Bank axborotnomasi. 2007-yil 17-iyul № 28.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Banklardagi depozit hisobvaraqlaridagi naqd puldagi to'lovlarni uzluksiz t'minlash kafolatlari to'g'risida" 2005-yil 5-avgustdagi PQ-147-sonli Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014 yilda Respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi 2015 yil 17 yanvar 11-son.

14. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf yetishning yo'llari va choralari. – T: "O'zbekiston", 2009 yil.

15. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: "O'zbekiston". 2015-yil.

16. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: "O'zbekiston" 2005-yil.

17. Abdullayeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007-yil.

18. Abdullayev YO., Qoraliyev T.M., Toshmurodov SH., Abdullayeva S. Bank ishi. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009-yil.

19. Veremenko S.A. Syurprizы reytinga kommercheskix bankov. Bankovskoye delo. №2, 2005 g.

20. Klyuchnikov M.V. ekonomiko-statisticheskii analiz struktury i dinamiki pokazateley passivnykh operatsiy kommercheskogo banka. – M.: "Finansы i kredit". 2002 g.

21. Murugova I.A. Operatsionnaya texnika i uchet v bankax. – T., TMI 2004.

22. Mejdunarдные standartы finansovoy otchetnosti. – M.: "Askeri" 2007 g.

23. Mullajonov F.M. Pul-kredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2012-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.//Bozor pul va kredit. 2012-yil yanvar 1-soni.

24. Navruzova K.N. va boshqalar. Bank hisobi. "Fan va texnologiyalar". – Toshkent. 2007-yil .

25. Rashidov O'.YU. Pul, kredit va banklar – T.: TDIU, 2008-yil.
26. SHirinskaya Z.G. Nesterova T.N. Uchet i operatsionnaya texnika v bankax. – M.: “Perspektiva” 2007 g.
27. “Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning ustuvor yo’nalishlari” mavzusidagi II respublika an’anaviy ilmiyamaliy konferen-siyasi materiallari. Toshkent. 2007-yil.
28. Bosh Depozitorlar Milliy Axborot Bazasi va unda mijozlarga hosraqam berish haqidagi 1145-sonli Nizom. . 2002 yil 30 may
29. Bank moliya tizimidagi islohotlarga bag’ishlanadi. // Bank axborotnomasi 2008-yil. №16.
30. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2008-yil.

### **Qo’shimcha adabiyotlar**

31. Banklarda qimmatli qog’ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2008-yil 13-dekabrda 28-4 sonli Qarori bilan tasdiqlangan yo’riqnoma.
32. Banklar foizlarni hisoblash to’g’risidagi Nizom. 1306-son bilan Adliya vazirligida ro’yxatga olingan. 2004-yil 30-yanvar.
33. O’zbekiston Respublikasi Markaziy bank buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi. 2005-yil. (2006-2012-yillardagi o’zgarishlari bilan).
34. O’zbekiston Respublikasi banklarning buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi. 2005-yil. (2006-2012-yillardagi o’zgarish-lari bilan).
35. “O’zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008-yil 3-maydagi 11/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan 1834-sonli yo’riqnoma.
36. O’zbekiston Respublikasida “Naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish haqida”gi 11/22- Nizom. 2002-yil 12-yanvar (2002-2012 yildagi o’zgarishlari bilan).



37. O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi 1-sonli yo'riqnoma. 2009-yil 16-mart 7/2-sonli qa-rori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2009-yil 27-aprelda davlat ro'yxatidan o'tkazildi).

38. Banklarda kassa ishini tashkil qilish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnoma" Ro'yxat raqami 1831, 2008-yil 27-iyun, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008-yil, 26-27-son.

39. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Ro'yxat raqami 1545, 2006-yil 14-fevral.

40. TIF "Milliy bank" Paxtaobod filialining yillik moliyaviy hisobotlari.